

NURILLO CHORINING BADIY ASARLARIDA MILLIY KOLORITGA XOS
KO'RINISHLAR NUTQIY JIHATDAN IFODALANISHI**Suvanov Husniddin Norqulovich***Termiz davlat universiteti, O'zbek filologiyasi fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
o'qituvchisi**Tel: +998977868805 E-mail: hsuvanov@tersu.uz***Annotatsiya**

Nurilla Chorining “Tashvishi yo‘q odamlar”, “Qizg‘aldoq” va “Lo‘litopmaslik chol” asarida xalq nutqidan foydalanib badiiy asarning mohiyati ochib berilgan. Muallif nutqi va qahramonlar nutqi uyg‘unlashgan holda o‘zbek millatining urf-odati, psixologik ruhiy holati xalqona uslubda yetkazib berilgan. Ikkinchi jahon urushi oqibatlarini va o‘zbek ayoli matonatini hikoyalarida tasvirlay olgan.

Kalit so‘z: Badiiy adabiyot, xalqonalik, tili, milliy kolorit, milliy ruh, ikkinchi jahon urushi.

Abstract.

In Nurilla Chori's works “Tashvishi yo‘q odamlar”, “Qizg‘aldoq” and “Lo‘litopmaslik chol” the essence of the artistic work is revealed using folk speech. The customs and psychological state of the Uzbek nation are delivered in folk style by combining the speech of the author and the speech of the heroes. He was able to describe the consequences of the Second World War and the courage of Uzbek women in his stories.

Key words: Fiction, folklore, language, national color, national spirit, World War II.

Аннотация

В произведениях Нуриллы Чори «Tashvishi yo‘q odamlar», «Qizg‘aldoq» и «Lo‘litopmaslik chol» сущность художественного произведения раскрывается с помощью народной речи. Обычаи и психологическое состояние узбекского народа переданы в народном стиле путем соединения речи автора и речи героев. В своих рассказах он смог описать последствия Второй мировой войны и мужество узбекских женщин.

Ключевые слова: Художественная литература, фольклор, язык, национальный колорит, национальный дух, Вторая мировая война.

Bobolar o‘g‘itini eshish, buvilar ertaklariga quloq tutib har bir harakat va holatga diqqat bilan e‘tibor berish har kimning qo‘lidan kelmaydi, qo‘lidan kelganlar uchun faxrdir. Umummilliy ko‘rinish tilida va diliga ko‘chirib, tasavvuridagi boyligini buzmagani holatda xalqimiz yetgazib berish uchun qalamining uchini o‘tkirayotgan ijodkorimiz Nurilla Choriyevdir. Ijodkorning badiiy asarlariga nazar tashlasak milliy urf-odat, milliy xarakter, milliy peyzaj tasviri, milliy o‘yinlar, milliy kiyim va milliy nutq kabi mentalitetga qoliplashtirilgan xususiyatlarda aks ettirilgan. Yozuvchi asarini o‘qigan kitobxon har tomonlama milliy koloritimizni anglab yetadi. Mudomiki, “Tashvishi yo‘q odamlar” to‘plamini o‘qir ekansiz, hikoyalar to‘plamida qahramonlari bilan muloqotga kirishayotgandek bo‘lasan kishi. Har bir hikoyasida xalqona hayot tasvirlari va tashvishlari ifoda qilingan. Xalqonalik aks etgan hikoyalaridan biri sifatida “Tashvishi yo‘q odamlar” asarini ko‘rsatishimiz mumkin. Asarda nabirasiga to‘y qilish orzusi bo‘lgan Bozorgan chavandoz hayotining ma‘lum bir ko‘rinishi hikoya qilinadi. Asar hayotiy tamoyillarga asoslanga. Bozorgan chavandozning orzulariga yo‘g‘rilgan badiiy asadir. Asar kitobxonning ruhiy olamiga singib ketishi tabiiydir. Voqealar ta‘sirchanligidan roviy nutqini ham unitasan kishi. “Qizg‘aldoqning adog‘idan ko‘ndalangiga Tagsaroy oqadi. Tagsaroyning kungay beti qari lalmi (el shunday aytadi), qiblasi

suvot – tayoq suqsang barg yozadi”¹kabi xalq orasida qo‘llanilgan shevaga oid so‘zlar, roviy tomonidan foydalanish deyarli qahramon nutqiday asarga singdirilib ketilgan. Bu esa, yozuvchining mahoratli ekanligidan dalolat. Ko‘rinib turibdiki, “kungay bet qari lalmi” bu gapda oftob nuri tushadigan, suvsiz joyga yomg‘ir yog‘ishidan ko‘karadigan g‘allalar misolida keltirilgan.

“Qiblası suvot – tayoq suqsang barg yozadi”² Qiblası suvot – ya’ni qibla tomoni suvliki lalmi joy bo‘lsada cho‘pning barglab daraxt bo‘lishini ijodkor noan’anaviy shaklda tasvirlayapti. Yomg‘ir yetarli yog‘ganidan yerda namlik yetarli ekani, daraxt eksa ham ko‘karishi nazarda tutulmoqda. Ijodkor asarida tasviriy ifodadan unumli foydalagan. Yozuvchi nutqida “Muborak oshyonidan sudralib chiqqan chavandoz shu chaylani o‘ziga vatan tutgan”³ Bozirgan chavandozning chaylani qo‘nim joy qilgani haqida aytgan. Muborak oshyoni doimo yashaydigan uyi nazarda tutilyapti. Sudralib chiqdi – hayot tashvishlaridan charchaganligiga ishora qilyapti. Chaylani o‘ziga vatan tutgan – Chayla dalada to‘rt tomoni ustun ko‘tarib usti qismiga xivich va o‘tlar tashlanishidan soya qiladigan joy. Vatan tutdi – ya’ni yashash joy qildi ma’nosida ishlatilyapti. Asar yozishda xalq nutqidan uchraydigan ibora va so‘z birikmalaridan yetarli foydalanilgan.

“O‘g‘li keldi. O‘tindi...”

Kelini keldi. Yolvordi...”

Qizi keldi. Yig‘ladi...”

Yozuvchi bu o‘rında sochma qora so‘zdan foydalanib, o‘ziga xos bo‘lgan uslubdan foydalanib, qahramonning qarilikka xos bo‘lgan injiqlik va qaysarlik xarakterini ochib bergan.

“Bozirgan chol o‘zini misli ko‘lvor chog‘laydi. Mezon quyoshida toblanib, shamoliga ko‘krak kermoqchi bo‘ldi. Uyga qaytmadi...”⁴ ijodkor bu o‘rında o‘xshatish-qiyoslash metodidan foydalanib, qahramondagi ruhiy holatni ochib beryapti. Mezon shamoliga toblanga karaxt holatdagi kolvar ilonga o‘xshatmoqda.

“Qush cho‘qimaydigan, jonliqqa yet bitirmaydigan achchiq piyozning boshida nima bor bu “itkasal”ga”⁵ bu o‘rında esa yet bitmas – achchiq piyoz yeb semirib bo‘lmasligini, piyoz dalasi boshiga kelib qushlardan va bashqa hayvonlardan qo‘riqlab dala boshida yotishga hech qanaqa asos yo‘qligini aytayapti. Qovun, tarvuz palak boshiga odamlar chayla qurib yashaydi, piyozning boshiga ko‘chib borish keragi yo‘q demoqchi, muallif. Qarilikda odatiy holatga aylangan o‘jarlikni ochib bergan. Keksaygan sari odam hurmat talab bo‘lishi va boshiga kelgan fikrni qilishga harakat qilib qolishi ko‘rsatib berilgan.

Bozirgan chavandoz xalq orasida uloq chopib katta bo‘lgan. Nabirasiga to‘y bersa albatta, ko‘pkari berish orzusida edi. Bozirgan chavandoz “Og‘zidagi tishi siyraklashib qolgan uzangidoshlarini bozorda ko‘radimi, mozorda ko‘radimi, do‘q urib: “Nevaramga to‘y beraman! Ko‘pkarisi katta bo‘ladi! Otga qarashing!.. ” gapirar edi”⁶ Ko‘pkari (uloq) o‘yinida qatnashib yurgan chavandozlar odatda o‘ziga ishonchi kuchli, mard, halol, chapani va jini bor insonlar bo‘ladi. Yozuvchi bunday obraz tanlashida ham milliy koloritning tabiatli ko‘rinishini chavandoz xarakterida mos yanada jo‘nroq tasvirlanishini maqsad qilib olgan. “Nacha vaqtdirki,

¹ N. Chori. G‘afyr Gulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi TOSHKENT – 2019 y.

² N. Chori. G‘afyr Gulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi TOSHKENT – 2019 y.

³ N. Chori. G‘afyr Gulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi TOSHKENT – 2019 y.

⁴ N. Chori. G‘afyr Gulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi TOSHKENT – 2019 y.

⁵ N. Chori. G‘afyr Gulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi TOSHKENT – 2019 y.

⁶ N. Chori. G‘afyr Gulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi TOSHKENT – 2019 y.

nevarani aytmaganda ismi odam bilan gaplashavermaydi”⁷. Bu gap ham muallif nutqi bo‘lib, ham chavandozga, ham qarilikka mos xarakterni so‘z orqali chizgan. Bu gapda esa odam ovu bo‘lgan chavandoz xarakteri xalqonalikni yanada kuchaytiradi. “Mezon shamolini ko‘rmagan piyoz chirib ketadi”⁸ – deydi dono xalqimiz. Ana shu chirib ketishini bahona qilagan qari Bozirgan chavandoz chaylada yotadi.

Bozirgan chavandozning turmush o‘rtog‘i Qo‘zigul kampir qazo qilgandan keyin muallif shunday “Ulus chavandozning boshini ikki qilishga shoshmagan. Go‘yo Qo‘zigul kampirning ko‘karishini sabr bilan kutgan, ko‘klamga ilhaq bo‘lgandek ko‘rinadi. Kun qizigan sari gap-so‘zlar urchib ketdi...” deydi. Bu ulus xalq ma‘nosida kelgan. Chavandoz so‘zi ko‘pkarida uloqni olib chiquvchi kishiga nisbatan ishlatiladi. Boshini ikki qilish – bu yerda uylantirish ma‘nosida kelyapti. Ko‘karishini sabr bilan kutgan – kasaldan tuzalishiga nisbatan qo‘llanilgan. Qo‘zigul kampir qarigan bo‘lsa ham yoshlar singari o‘nib o‘sishi nazarda tutilgan. E‘tibor bersak, yuqoridagi gaplarning barchasi muallif tomonidan so‘zlansada asar qahramonlari nutqidan farqli ekanligi deyarli kuzatilmaydi. Avazning otasini yo‘qlab go‘yandalik qilishi ham yozuvchi mahoratidir. Ya‘ni vafot etgan insonlarga yaqinlari tomonidan bag‘ishlab aytgan alamli yo‘qlab yig‘laganda aytiladigan bag‘ishlovidir. Nay cholg‘u asbobining turi bo‘lganidan xabarimiz bor, shuningdek mumtoz adabiyotda naydan ijodkorlar ayriliq ma‘nosida foydalanishgan. Bugungi kunda shu ma‘noda kelishi sir emas. “Otam har oqshom arg‘amchiqopini tomorqaning etagiga qoqardi. Keyin menga nay chaldirib, tevarakka mordek tikilardi. Men nay chalardim. Ota esa “Men oyoq uzatar bo‘lsam sening holing nima kichadi, Xunxorning sultoni!” derdi, – deb yer tepdi Avaz”⁹ yozuvchi nay detalidan asardagi Tolmas morboz o‘limi yaqinlashganlik holatini ifodalash uchun foydalanyapti. Nay ayriliq elchisi ekanligiga ishora sifatida ishlatyapti. Bu yorug‘ olamni yaqin kunlarda tark etishini sezgan Tolmas morboz obrazi orqali ko‘rsatib beryapti. Yana shuni aytish kerakki, Bozirgan cholning kampiri Qo‘zigul kampir olamni tark etgandan keyin qo‘shiq aytadigan bo‘ldi. Bu qo‘shiqni nabirasiga o‘rgatib, bobo nabira jo‘rlukda aytadigan bo‘ldi.

Bola bobosi o‘rgatgan:

“Bedananing yotar joyi xas bo‘lar,

Mezon kirsas, targ‘il morlar mast bo‘lar”¹⁰

qo‘shiqni davom ettirishini kutardi, nabira. Afsuski bobosi bu

“Chol o‘lsa qozon-qozon osh bo‘lar,

Kampir o‘lsa baland tog‘lar past bo‘lar”¹¹.

qo‘shig‘ini davom ettira olmadi. Chunki, Bozirgan chavandoz yorug‘ olamni tark etgan edi. O‘lim... ya‘ni juftidan ayrilgan Bozirgan chavandozni hayot Shoir, go‘yanda qilib qo‘yadi. Chungi bunga sabab yakka-yu yagona chavandoz uchun yolg‘iz bo‘lgan turmush o‘rtog‘i edi. Qo‘sha qarishiga umid bog‘lagan chavandoz hayot tashvishlarini butkul unutdi. Qo‘shiq davomini aytolmagan chavandoz bu dunyo tashvishlarini umuman unutib yorug‘ olamni tark etadi.

Nurilla Chori “Tashvishi yo‘q odamlar” hikoyasida xalqonalik aks etgan. Asarda voqealar oddiy qishloq hayoti tasvirlanishi bilan qiziqarli kechadi. Hayotiyliigi bilan asar o‘z kitobxonini topdi. Bunga sabab aynan xalq hayotida qo‘llanilgan so‘zlar va voqealardir.

⁷ N. Chori. G‘afyr Gulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi TOSHKENT – 2019 y.

⁸ Xalq nutqi

⁹ N. Chori. G‘afyr Gulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi TOSHKENT – 2019 y.

¹⁰ N. Chori. G‘afyr Gulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi TOSHKENT – 2019 y.

¹¹ N. Chori. G‘afyr Gulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi TOSHKENT – 2019 y.

Yana shunday o'zbekning asliyatini ko'rsatish yo'lida yozilgan asarlaridan biri "Bo'ron tingan kecha" asari. Asar shunday jumlar bilan boshlanadi: "Hu-uv, u davron boshqacha edi. Har mardumning dili tili bilan bir edi"¹². Bu gapdan anglash mumkin: mardum – erkak ma'nosida kelyapti. Ijodkor o'z psixologik nuqtayi nazaridan yondoshgani aniq sezilib turibdiki, har bir odamning ko'ngli va tili birligi muallif tilidan aytilyapti.

Albatta, asar o'zbek millatining milliy an'analariga boy, shuning bilan bir kontekstda milliy koloritga xos ko'rinishda ifodalar aks etgan. Norbo'ta Sharofni muallif shunday deydi: "Hilolni to'ldirib yo bo'lmasa, barkashdek oyni nimtalab Elsaroyning soyida bo'y berardi". Hilol – yangi oy ekanligi bizga ma'lum, ya'ni oyni to'ldirib, barkashdek oyni nimtalab so'zida esa, oyni botirib so'ngra uyga qaytishini nazarda tutyapti. Elsaroy – joy nomiga nisbatan qo'llanilgan. Bo'y berishi – ko'rinish berishi nazarda tutilmoqda. Yana a'mol – amallar, ishlar ma'nosida kelyapti. Har ikki asarda o'xshash jihatlar ko'p. Syujetlarda, qahramonlar hayotida tafovutlar umuman boshqacha kechadi. Asar Qashqadaryo viloyatida bo'layotgan voqealar asosida yozilgan. Asarda ko'pkari(uloq) Kurash (olish) kabi milliy o'yinlar tasvirlanishi asar bo'yoqdorligini orttiradi. Joy nomlari geografik jihatdan bir xil bo'lsada voqealar turlicha kechadi. Muallif nutqida milliy koloritga xos ko'rinish mavjud. Nutqi orqali peyzaj, qahramon xarakteri, milliy o'yinlar me'yoriga yetkazib tasvirlangan. Inson orzu-niyatlarini atroflicha har qanday boboning orzusini tasvirlagan. Afsuski, asarda orzusi armonga aylangan Bozirgan chavandoz taqdiri armonli tugaydi. Achchiq va chuchukni bir totgan sevimli hayot yo'ldoshi Qo'zigul momoning qazo qilishi Bozirgan chol uchun kutilmagan hayotiy tashvish bo'ldi.

Qizg'aldoq – bu joy nomi. Turdixol ismli ojiza ayol yashab o'tgan. "Turdirdixolning eri askarlikka ketdi-yu, qaytmadi. O'lik tirikligidan darak yo'q. Beva boshi bilan ko'zining oqu qorasi-bir o'g'il, bir quzini elga qo'shaman, deb yoshini yashamay yalmog'izning singlisiga aylandi qoldi" deya so'zlaydi muallif. Urush yillari tasvirlangan bu asarda ham inson qadri yotibdi. Turdixolning hayotini muallif hikoyaning birinchi betidayoq qisqa va lo'nda tasvirlab beradi. Farzandlarining kamoloti Turdixolning barcha qiyinchiliklarining rohati ekanligini ko'rsatadi. Tul bo'lgani va sobiq sho'rolar bergan ozorlari hikoyaning birinchi betida farzandga bo'lgan mehri orqali yengib chiqqani aytiladi. Asarda ijodkor Bibi robia' Saidovanning "Oqmaydigan tosh" asariga o'xshash syujet tasvirlangan. Lekin, ikki asarda voqealar umuman boshqacha tus oladi. "Qizg'aldoq" asarida Turdixol oila qurmaydi. Bibi Robia' Saidovanning "Oqmaydigan tosh" asarida esa aksincha Mo'tabar turmushga chiqadi. Har ikki asar yozilishiga sabab bo'lgan sabab bitta u ham bo'lsa urush ikkinchi jahon urushi. Voqeiylik bitta bo'lsa ham taqdirilar ikki xil yakun topadi. Ikki taqdirning tutash nuqtasi eri urushga ketib qaytmaganligi. Mualliflar urushning salbiy oqibatida domida qolgan o'zbek ayollari qismatini me'yoriga yetkazib yoritib bergan. Ya'na shuni aytish kerakki, "Lo'litopmaslik chol" hikoyasida ham milliy koloritga xos bo'lgan so'zlar ko'p. So'zlar orqali o'zbek millat nutida uchraydigan koloritga xos so'zlar adabiy me'yorga amal qilgan alligorik uslubda qo'llanilgan. Nurilla Chori asarlarida xalqimiz orasida bugungi kunda ham ishlatilgan so'zlarnig qo'llanilish darajasi kitobxon uchun qiziqarli va o'ziga tortadi. "Lo'litopmaslik chol" hikoyasida Qulmat podachi obrazi asarda qahramon sifatida olingan. Ijodkor asarining "Podaning ortidan tayog'ini sudrab bir chiqqanda oylab ketadigan qizg'aldoqlik Qulmat podachi peshonasi tirishib, burushib, burni oqib muyloviga oqib, soqolini ko'zyoshlari yuvib, eshonlarning poyqadamiga shirboz-bo'rdoqi, olabosh-qorabosh qo'ylarni so'yib, mullalar etagini ko'ziga surtib yurdi"¹³ shu jumllariga

¹² N. Chori. G'afyr Gulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi TOSHKENT – 2019 y.19-b

¹³ N. Chori. G'afyr Gulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2019 y

Qulmatning hayotini tasvirlagan. Ya'ni, hayoti hijron va qiyinchilikda o'tayotgan insonga nisbatan ishlatiladi. "Burushib" bu yerda hayotining yaxshi tomonga emas, aksincha yanada murakkabroq kechishiga ishora qilmoqda. Qulmatning turmush o'rtog'i Zubaydaning hayotini "Qirmizi olmayonoq yuzini so'lg'inlik mahv etganda taqimini o'pgan sochiga oq oralab tirsagiga yetmay qoldi"¹⁴ tasviriy yo'l orqali ifodalaydi. Ijodkor Zubaydaning qirmizi olmaday yuzini so'lg'inlik mahv etish, albatta hayotga taslim bo'lganligini ifodalamoqda. Soch detali orqali umrining yakun topshini tasvirlab bergan. Oltmishga yetganda esa tirnoq bitgani, ya'ni farzandli bo'lgani nazarda tutilmoqda. Qulmat va Zubayda peshonasiga sig'maydi norasida go'dagi. Avval na'ra tortgani, uvillagani va hayot sinovlariga ko'nikib jizzakiligini yo'qotgani asarda hayotiy saboq borligini yozuvchi aytmoqda, ya'ni Qulmat obrazining psixologizmini ochib bermoqda. Shu bilan birga badiiy psixologizmdan unimli foydalanib ifodalagan. Ijodkor badiiy to'qimani sodda syujetlar orqali ifodalashi asardagi badiiy qiyma yuqori pog'anaga ko'taradi. Ijodkor hikoyalaridamilliy koloritning nutqiy ko'rinishi bo'lgan lakuna, realiya, etnografizmlar va boshqa bir qancha nutqiy birliklarni qo'llagan. Me'yordan ortiq hollari ham bor. Biroq shuni aytish kerakki, shevaga oid so'zlar asar butunligini ta'minlagan. Asarlarida hayotiylik, insoniylik, vatanparvarlik kabi haqiqatlar o'z tasdig'ini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N. Chori. G'afyr Gulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2019 y
2. Husniddin Norkulovich Suvanov Termiz State University Teacher Uzbekistan ARTISTIC INTERPRETATION OF NATIONAL COLOR IN PROSE OF UZBEK YOUNG PEOPLE 28.02.2023
3. SUVANOV H. CHARACTERISTIC ASPECTS OF NATIONAL COLOR IN BIBI ROBIA SAIDOVA'S STORY" OQMAYDIGAN TOSH" //Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 50-53.
4. Husniddin, Suvanov. "" ESHMONBEK" QISSASIDA MILLIY RUH TALQINI." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI (2022): 126-131.
5. Suvanov H. N. et al. Kolorit ijodkorning va xalqning milliy qirralarini ochib berguvchi omildir //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 6. – C. 962-965.
6. Ahmad, Amini Aziz. "SHIMOLIY AFGONISTON OZBEKLARI NUTQIDA DEHQONCHILIK ASBOBLARI NOMLARI VA ULARNING LISONIY TALQINI." Science and innovation 1.B2 (2022): 485-490.

¹⁴ N. Chori. G'afyr Gulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2019 y